



NAQL VA MAQOLLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Urazbaev Zaman

QQDU qoshidagi 1-son litsey o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada naql va maqollarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda xalq og'zaki ijodining mazkur janrlari jamiyat hayotida tutgan o'rni, ularning nutqiy vazifasi, kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligi hamda madaniy-semiotik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqol va naqlning shaxslararo muloqotda ta'sirchanlik vositasi sifatidagi jihatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *naql, maqol, pragmatika, nutqiy vazifa, kommunikatsiya, xalq og'zaki ijodi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются прагматические особенности пословиц и поговорок. Анализируется их роль в устном народном творчестве, коммуникативные функции, направленность на речевое воздействие и культурно-семиотическое значение. Особое внимание уделено использованию пословиц и поговорок как средства речевой экспрессии в межличностной коммуникации.*

Ключевые слова: *пословица, поговорка, прагматика, речевая функция, коммуникация, устное народное творчество.*

Annotation. *This article examines the pragmatic features of proverbs and sayings. It highlights their role in oral folk literature, communicative functions, orientation towards speech influence, and cultural-semiotic significance. The paper also explores the effectiveness of proverbs and sayings as expressive means in interpersonal communication.*

Keywords: *proverb, saying, pragmatics, speech function, communication, oral folk literature.*

Har bir xalqning ma'naviy boyligi, milliy tafakkuri va dunyoqarashi avvalo uning og'zaki ijodida o'z ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan, maqol va naqlar xalq donoligi, tajribasi hamda hayotiy kuzatuvlarining ixcham va ta'sirchan ifodasi bo'lib, asrlar davomida kishilar nutqida qo'llanilib kelmoqda. Ular til birliklari sifatida nafaqat estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega, balki kommunikativ jarayonda muayyan maqsadni ko'zlab ishlatilishi bilan ham ajralib turadi.

Maqol va naqlning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish ularning shunchaki badiiy ifoda vositasi emas, balki nutqiy faoliyatda kommunikativ ehtiyojni qondiruvchi, suhbatdoshga ta'sir etuvchi kuchli lingvopragmatik birlik ekanini ko'rsatadi [8]. Chunki har bir maqol yoki naql o'z mazmunida muayyan hayotiy vaziyat, qadriyatlar tizimi va milliy dunyoqarashni mujassamlashtiradi.



Bugungi kunda pragmlingvistika til birliklarining amaliy nutq jarayonida qo'llanishi, ularning ta'sirchanligi va maqsadga yo'naltirilganligini tahlil qiluvchi muhim soha sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqol va naqlarni pragmatik jihatdan o'rganish na faqat lingvistik, balki madaniy, ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Naql va maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va mazmunan serqirra janrlaridan biridir. Ular asrlar davomida xalqning turmush tajribasini, ijtimoiy kuzatuvlarini va axloqiy qadriyatlarini ixcham shaklda ifodalab kelgan [2]. Naql va maqollar nutqiy jarayonda faqatgina badiiy ifoda vositasi emas, balki muloqotda *pragmatik birlik* sifatida ham xizmat qiladi.

Pragmatika nazariyasi til birliklarini faqat semantik yoki grammatik jihatdan emas, balki *gapiruvchi maqsadi, tinglovchi bilan munosabati va kommunikativ vaziyat* asosida tahlil qiladi [4]. Shu bois maqollarni pragmatik jihatdan o'rganish ularning jamiyatdagi ijtimoiy va kommunikativ funksiyalarini ochib beradi. Mazkur maqolada naql va maqollarning pragmatik xususiyatlari, ularning turli vaziyatlarda qo'llanishi, illokutiv kuchi va perlokutiv ta'siri misollar bilan tahlil qilinadi.

Nutqiy aktlar nazariyasi J.Austin (1962) va J.Searle (1969) tomonidan ishlab chiqilgan *nutqiy aktlar nazariyasi* maqollarga ham tatbiq etilishi mumkin. Har bir maqol — bu nutqiy akt bo'lib: lokutiv jihat — gapning shakli, illokutiv jihat — gapiruvchi maqsadi, perlokutiv jihat — tinglovchida uyg'otadigan ta'sir bilan bog'liq [4]. Masalan, qoraqalpoq maqoli “Sabir túbí – sarı altın”; Lokutiv: sabrli inson oxir-oqibat yaxshilikga yetadi; Illokutiv: insonlarni sabrli bo'lishga undaydi. Perlokutiv: tinglovchini ruhlantirish, irodasini mustahkamlash.

Kooperatsiya prinsiplari asosida maqollar ko'pincha suhbatda samarali muloqot uchun ishlatiladi. Masalan, qisqa va lo'nda maqol ko'pincha «ortiqcha gapni qisqartirib, asosiy fikrni» yetkazadi.

Shuningdek, maqollarning kommunikativ vazifalariga dalil keltirish va fikrni kuchaytirish, maslahat va ogohlantirish, tanqid va kinoya, maqollarning illokutiv va perlokutiv kuchi, diskursiv qo'llanilishi bilan ham ajralib turadi. Masalan: “Tama-tama kól bolar”, “Kóz - qorqaq, qol - batır” singari maqollar bahsda dalil sifatida ishlatiladi.

Maqollar ko'pincha maslahat berish yoki ogohlantirish funksiyasini bajaradi. “Ne ekseń, sonı orasań”, “Jer aydasań gúz ayda, gúz aydamasań júz ayda” singari maqollar maslahat berish manosida ishlatiladi.

Shuningdek, maqollar ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ishlatiladi. “Awzı qıysıq bolsa da baydıń balası sóylesin”, maqolida tanqid manosida berilsa, “Miynet etseń erinbey toyadı qarnıń tilenbey” iborasida rag'bat va motivatsiya manosida keltirilgan.

Maqollarning diskursiv qo'llanilishi haqida so'z bo'lganda ular siyosatchilar tomonidan, ta'lim jarayonida, ommaviy axborot vositalarida faol ishlatilishi ma'lum bo'ladi. Masalan: “Bolar bala bes jasınan belgili”, “Bir jaǵadan bas shıǵarıp, bir jeńnen qol shıǵarıw” singari misollar faol qo'llaniladi.



Tahlillar shuni ko‘rsatadiki: Maqollar pragmatik jihatdan ko‘p funksiyali birlikdir: maslahat, ogohlantirish, dalil, tanqid, motivatsiya ma’nolarida keladi.

Ularning illokutiv kuchi bevosita gapiruvchining maqsadiga bog‘liq bo‘lib, perlokutiv kuch e’sa tinglovchining ruhiy holatida aks etadi.

Maqollar diskurs turiga qarab turlicha ta’sir qiladi: siyosatda – ruhlantiradi, ta’limda – tarbiyalaydi, OAVda – ta’sirchanlikni oshiradi.

Qiyosiy tahlil ularning universal xususiyatlarini (sabr, birlik, mehnat qadriyatlari) va milliy xususiyatlarini (masalan, qo‘shnichilik, oila qadriyatlari) ko‘rsatadi.

Demak, naql va maqollar xalq og‘zaki ijodida faqatgina estetik vosita emas, balki pragmatik kuchga e’ga kommunikativ birlikdir. Ular nutqda: fikrni kuchaytirish, maslahat berish, tanbeh va ogohlantirish, ruhlantirish vazifalarini bajaradi.

Pragmatik yondashuv maqollarning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini, kommunikativ ta’sirchanlikni ochib beradi va ularni zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning markaziga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.
2. Dal’ V. (1862). Пословицы русского народа. Moskva.
3. Doniyorov H. (2008). O‘zbek maqollarining semantik-pragmatik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
4. Grice H. P. (1975). Logic and Conversation. In Cole, P., & Morgan, J. (eds.), Syntax and Semantics (Vol. 3). Academic Press.
5. Караулов Ю. (1997). Русский язык и языковая личность. Москва: Наука.
6. Кубрякова С. (2004). Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Moskva: Academia.
7. Lakoff G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
8. Mieder W. (2004). Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press.